| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Sh.Xakimova - Xitoy filologiyasi" kafedrasi mudiri, katta o'qituvchi,PhD<br>"Xitoy filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi<br>I.Matyakubov – Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD) "Yangi asr" Universiteti "Umumta'lim fanlari" kafedrasi katta o'qituvchisi |
|---|---|

Sharq filologiyasi fakulteti dekani ____________ D.Djurayev

Xitoy filologiyasi kafedrasi mudiri ____________ Sh.Xakimova

Universitet axborot resurs markazi direktori ____________ S.Kayumova



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Rektor ____________ I.M.Tuxtasinov

2025- yil "___" ____ August

Ro'yxatga olindi: № BD-60230100- MAM1304

2025-yil "28" August

**MAMLAKATSHUNOSLIK**
**FANINING O'QUV DASTURI**
**(2-kurs)**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | – | San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 | – | Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | *60230100* | – | Filologiya va tillarni o'qitish (xitoy tili) |

**Toshkent – 2025**

| Fan/modul kodi<br>MAM1304 | O'quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>3 | ECTS Kreditlar<br>4 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4/4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Mamlakatshunoslik | 48 | 72 | 120 |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – turli davr (qadim zamon, ilk o'rta asrlar, o'rta asrlar, yangi davr, eng yangi davr va globallashuv davri)dagi Xitoy jamiyatning rivojlanishini o'rganishdan iborat. Formatsion evolyutsiyaning o'ziga xos xususiyatlari jamiyat tuzilmasiga, urug'chilik qabila tuzilish elementlari mutassil kamayib borishiga, ushbu o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlarda, ong va turmushida ham ro'y berishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bular siyosiy hayot haqida ma'naviy axloqiy jarayonga ham ta'sir etdi. Mazkur kurs o'rganilayotgan mamlakatning hozirgi ahvolini to'laroq tushunib olish uchun zarur va dolzarbdir.

Fannining vazifasi – ushbu kursni o'zlashtirish, yaxshi o'rganish, singdirish maqsadida kursni o'rganishda xitoy tillaridagi nom va atamalarni yozib borish tavsiya qilinadi, bundan maqsad – tarixiy-jug'rofiy ṇomalarni eslab qolish, ularni qaytadan takrorlash, yod olish talab etiladi. Kurs bo'yicha o'quv materiallarini va manbalarini chuqur o'rganish o'rganilayotgan mamlakat tarixi, madaniyati, iqtisodiyotini o'rganish davomida, uning tarixiy rivojlanishi qonuniyatlarini to'g'ri tushunib olishga imkon beradi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**3-semestr**

1- **mavzu. Besh sulola va o'n qirollik davri**

Jurjenlar va mo'g'ullar hukmronligi davrida xitoyda feodalizm gullab-yashnashi va xalq xo'jaligining inqirozi. Sun, lyao, jin va yuan sulolalarining boshqaruvi.

**2-mavzu. O'rta asr Xitoyida feodal iqtisodiyotning yuqori darajada rivojlanishi; uch buyuk ixtiro.**

Shimoliy Sun davlatida markazlashgan monarxiyaning barpo etilishi va tashqi dushmanlarga qarshi kurash.

**3-mavzu. Vang Anshi islohotlari.**



**4 (yaxshi) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muyyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

**3 (qoniqarli) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

**2 (qoniqarsiz) baho** – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

**6.**

**Asosiy adabiyotlar**

1. S.Nosirova, S.Hashimova: Xitoy tarixi – Toshkent: "Extremum press", 2018.
2. S.Nosirova, S.Hashimova: Xitoy madaniyati – Toshkent: "Zamin nashr", 2019.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. –56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
6. Wright A.F. The study of Chinese Civilization // Journal of the History of Ideas. Vol.21. #2. 2005. Boston. Pdf.

**Axborot manbaalari**

7. www.gov.uz
8. www.bilim. uz
9. www.ziyonet. uz

**7.** O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil 28-avgust yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan (1-sonli bayonnoma).

**8.** **Fan/modul uchun mas'ullar:**

M.Nurmuxamedova – Xitoy filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

- Xitoy xalqi madaniyati va tarixiy obidalari, Xitoy tarixiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlari va bosqichlari, Xitoy xalqlarining tarixi, manbashunosligi va tarixnavisligi, mintaqa tarixiy geografiyasi haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;
- Xitoyda dinlar va diniy munosabatlar, Xitoyni jahonda tutgan o'rni, Xitoyda qadimdan hozirgacha davlatchilik jarayonlari tarixi haqida ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;

mintaqa xalqlari madaniyati bo'yicha ma'lumotlarni boshqa mintaqalarning ilg'or madaniyatlari bilan solishtirish va bu madaniy-tarixiy tizimning afzalligini ko'rsata bilish va madaniy-tarixiy tizimning o'ziga xos jihatlarini bilish, ulardan foydalanish malakalariga ***ega bo'lishi kerak.***

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlar:**

- aqliy hujum;
- interfaol suhbat;
- keys-stadilar;
- besh minutlik esse;
- assesment;
- bahs-munozara;
- muammoli vaziyat;
- charxpalak;
- beshinchisi ortiqcha;
- hayoliy xarita;
- guruhlarda ishlash;
- rezyume;
- BBB;
- yo'naltiruvchi matn;
- tushunchalar tahlili;
- zinama-zina.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tog'risida Nizom"ga ko'ra fanga ajratilgan kredit beriladi.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida belgilanadi.

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

**5 (a'lo) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.



Jinlar bosqinlari va Song hukumatining janubga qochishi; Janubiy Sungning Jin davlatiga nisbatan murosachilik siyosati; xitoy xalqining Jinlarga qarshiligi.

**4-mavzu. Song sulolasi davrida Xitoy jamiyati.**

Song sulolasi tomonidan Jin davlatiga nisbatan olib borilgan "vaqti-vaqti bilan tinchlik, vaqti-vaqti bilan urush" siyosati davrida Xitoy jamiyati.

**5-mavzu. Mo'g'ullarning yuksalishi.**

7. Mo'g'ullarning yuksalishi va ularning xitoyni bosib olishi. Mo'g'ullar hukmronligi va Xitoy iqtisodiyotining inqirozi Yuan sulolasi hukmronligining oxirida yuz bergan yirik dehqon qo'zg'olonlari.

**6-mavzu. So'nggi feodalizm davri.**

Ming va Ching sulolalari davri (1368–1840) Ju Yuan-chan va Ming imperiyasining tashkil topishi Ming sulolasi davridagi tashqi aloqalar. Manufaktura ishlab chiqarishining rivojlanishi, tovar xo'jaligi va kapitalizm elementlarining o'sishi.

**7-mavzu. Keskin absolutistik feodal tuzum.**

Ming sulolasi hukmronligining oxirida yuzaga kelgan ijtimoiy inqiroz. Li Zicheng va Ming sulolasi hukmronligining so'nggi davridagi buyuk dehqonlar qo'zg'oloni.

**8-mavzu. Manjurlar tomonidan Xitoyning bosib olinishi.**

Xitoy xalqining ozodlik kurashi. Manjur imperiyasi — xalqlar qamog'i. Chinglarga qarshi kurashning yanada kengayishi. Manjurlarning kam sonli millatlarni zabt etishi

**9 -mavzu. Xitoyning "Afyun urushlari".**

Birinchi Afyun Urushi (1839–1842) Ikkinchi Afyun Urushi (1856–1860) Ichki inqirozlar davri (1850–1873).

**10-mavzu. Ching sulolasining qulash va Respublikachilik davri (1911–1949).**

1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgan Mao Zedong Pekinda yangi hukumatni e'lon qilgan. Kommunistik Xitoy (1949–1976) — Mao Zedong davri

**11-mavzu. Kommunistik Xitoy (1949–1976) — Mao Zedong davri.**

Mao siyosati. Mao Zedong islohoti. Mao Zedong davridagi madaniy revalyutsiya. Rejali iqtisodiyot.

**12-mavzu. Xitoyning 1978-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davri.**

Deng Siaoping islohotlari (1978–1997) Jiang Zemin, Hu Jintao va Si Jinping davrlari (1997 – hozirgacha) Si Jinping davri (2012–2025).

**III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Besh sulola va o'n qirollik davri.
2-mavzu. O'rta asr Xitoyida feodal iqtisodiyotning yuqori darajada rivojlanishi.
3-mavzu. Vang Anshi islohotlari.
4-mavzu. Song sulolasi davrida Xitoy jamiyati.
5-mavzu. Mo'g'ullarning yuksalishi .
6-mavzu. So'nggi feodalizm davri.
7-mavzu. Keskin absolutistik feodal tuzum.

8-mavzu. Manjurlar tomonidan Xitoyning bosib olinishi.

9 -mavzu. Xitoyning "Afyun urushlari".

10-mavzu. Ching sulolasining qulash va Respublikachilik davri (1911–1949).

11-mavzu. Kommunistik Xitoy (1949–1976) — Mao Zedong davri.

12-mavzu. Xitoyning 1978-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davri.

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi. mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:**

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlami HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash:
- amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish. vaqtdan unumli foydalanish:
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilganl vazifalami o'z vaqtida bajarishi.

**Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish:
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash.

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Jurjenlar va mo'g'ullar hukmronligi davrida xitoyda feodalizm gullab-yashnashi va xalq xo'jaligining inqirozi. Sun, lyao, jin va yuan sulolalarining boshqaruvi.
2. Besh sulola va o'n qirollik davri.
3. Shimoliy Sun davlatida markazlashgan monarxiyaning barpo etilishi va tashqi dushmanlarga qarshi kurash.



4. O'rta asr Xitoyida feodal iqtisodiyotning yuqori darajada rivojlanishi: uch buyuk ixtiro.
5. Vang Anshi islohotlari
6. Jinlar bosqinlari va Sun hukumatining janubga qochishi: Janubiy Songning Jin davlatiga nisbatan murosachilik siyosati: xitoy xalqining Jinlarga qarshiligi
7. Song sulolasi tomonidan Jin davlati ga nisbatan olib borilgan "vaqti-vaqti bilan tinchlik, vaqti-vaqti bilan urush" siyosati davrida Xitoy jamiyati
8. Mo'g'ullarning yuksalishi va ularning xitoyni bosib olishi
9. Mo'g'ullar hukmronligi va Xitoy iqtisodiyotining inqirozi
10. Yuan sulolasi hukmronligining oxirida yuz bergan yirik dehqon qo'zg'olonlari.
11. So'ngi feodalizm davri. Min va Ching sulolalari davri (1368–1840)
12. Ju Yuan-chan va Ming imperiyasining tashkil topishi.
13. Ming sulolasi davridagi tashqi aloqalar
14. Manufaktura ishlab chiqarishining rivojlanishi, tovar xo'jaligi va kapitalizm elementlarining o'sishi.
15. Keskin absolutistik feodal tuzum. Ming sulolasi hukmronligining oxirida yuzaga kelgan ijtimoiy inqiroz
16. Li Zicheng va Ming sulolasi hukmronligining so'nggi davridagi buyuk dehqonlar qo'zg'oloni.
17. Manjurlar tomonidan Xitoyning bosib olinishi va xitoy xalqining ozodlik kurashi.
18. Manjur imperiyasi — xalqlar qamog'i. Chinglarga qarshi kurashning yanada kengayishi.
19. Manjurlarning kam sonli millatlarni zabt etishi.
20. Xitoyning "Afyun urushlari" arafasidagi tashqi aloqalari.
21. Afyun urushlaridan to hozirgacha bo'lgan davr tarixi (1839–2025)
22. Birinchi Afyun Urushi
23. Tai ping qo'zg'aloni
24. Ikkinchi Afyun Urushi.
25. Da Tai ping qo'zg'aloni.
26. Ichki inqirozlar davri (1850–1873)
27. Ching sulolasining qulash va Respublikachilik davri (1911–1949)
28. 1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgan Mao Zedong Pekinda yangi hukumatni e'lon qilgan.
29. Kommunistik Xitoy (1949–1976) — Mao Zedong davri
30. Chankai Shi va Maoze Dong kurashi
31. Deng Siaoping islohotlari (1978–1997)
32. 29 "Islohot va ochiqlik siyosati"
33. Jiang Zemin davri
34. Hu Jintao davri
35. Si Jinping davri
36. Si Jinping davri (2012–2025)

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan badiiy asarlarni, tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, o'qigan badiiy va she'riy asarlarning til xususiyatlarini yozma bayon qilish, portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

| | |
|---|---|
| 3. | **V. Ta'lim natijalari /Kasbiy kompetensiyalar**<br>**Talaba bilishi kerak:** |